



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQUARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....	319
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QO'SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI.....	326
A.A. Bobomurodov	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT" TIZIMIGA O'TISH ZARURIYATI VA XIZMATLAR SOHASI UCHUN IQTISODIIY AHAMIYATI.....	333
Y.M.Xalikov	
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	342
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH.....	349
Palvonova Sevara Baxromovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	355
Almanov Ilhom Sultonovich	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI GEYMIKATSIYALASH ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA IQTISODIIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	362
Aslonova Rushano Ilxomovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIIY NATIJADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH.....	368
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
HUDUDLARNING IQTISODIIY RIVOJLANISHIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	374
Xolmatov Azamatjon Abdupattoyevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПОРТНОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	380
Муниса Турдибаева	
LOYIHA MENEJERLARINING SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHALAR IQTISODIIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	394
Zairova Farida To'xtamurod qizi	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIIY KO'RSATKICHLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH.....	400
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	407
Jumaev Sohob Baxodirovich	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI VA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TRANSFORMATSIYON MODELII.....	412
Murodullayeva Guljaxon A'zamjon qizi	
INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY VA USLUBIIY ASOSLARI	418
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	426
Olimboyeva Nazokat Abdujabbor qizi	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARIDA INTEGRALLASHGAN RISKKA YO'NALTIRILGAN AUDIT MODELIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI.....	431
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	441
Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT FAOLIYATINI SOLIQ MEXANIZMLARI ASOSIDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH	446
O'rinova Umida Qodirjonovna	
SOG'LIQNI SAQLASHNING YAGONA RAQAMLI EKOTIZIMIDA KIBERXAVFSIZLIK RISKLARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	450
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
XORAZM VILOYATIDA YER BOZORI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	456
Ubaydov Mirshod Ismailovich	
O'ZBEKISTON UY-JOY BOZORIDA MOLIYAVIY PUFAK XAVFINI BAHOLASH: INTEGRAL INDEKSNI SHAKLLANTIRISH VA EKONOMETRIK TAHLIL	462
Botirov Islombek Ulug'bek o'g'li	
SUTCHILIKGA IXTISOSLASHGAN CHORVACHILIK KORXONALARIDA TANNARXNING BUXGALTERIYA HISOBINING OBYEKTI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	467
Razzoqov Abbas Abdumalik o'g'li	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLAR ICHKI AUDITINING INSTITUTSIONAL-TASHKILY MEXANIZMI	472
Mulayev Farxod Alisherovich	
SHAHAR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK BARQARORLIK TAMOYILLARINI JORIY ETISH: MUAMMOLAR, INNOVATSION YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR.....	477
Nurtayev Zaxriddin	
SANOATNING «DRAYVER» SOHALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI JADALLASHTIRISH	482
Xolbozorov Muzraf Yusup o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ЦИФРОВОГО СТРАХОВАНИЯ ТУРИСТСКИХ РИСКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	489
Усманова Азиза Бахтиер кизи	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI.....	497
Rajabov Saidrasul Xalil o'g'li	
AYOLLAR TADBIRKORLIGI VA GENDER TENGLIGI: XITOIY VA O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORLARI TRANSFORMATSIYASI MISOLIDA	504
Xasanova Shaxzoda	
SOLIQ TIZIMIDA MARKIROVKALASH ORQALI XUFIYONA IQTISODIYOT VA SOLIQDAN QOCHISHNI QISQARTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	510
Ismailov Bobir Salomovich	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BOSHQARUV HISOBOTI METODOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISH KONSEPSIYALARI	517
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
HUDUDIY IQTISODIY TIZIMNI INNOVATSION BOSHQARISHDA "INNOVATSION EKOTIZIM" KONSEPSIYASI ASOSIDA ICHKI VA TASHQI MUHITLAR O'RTASIDAGI DINAMIK O'ZARO TA'SIRLARNI BAHOLASH.....	521
Xolov Azimjon	




ECONOMIC AND ORGANIZATIONAL MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN TOURISM	530
Abdurashidova Mahfuza Tolibjon kizi	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	534
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
SAVDO XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	545
Raxmanov Sherzod Shuxratovich	
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ АУДИТА ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	552
Абдуллаева Ш.Э. Чернушкина Л.А.	
O'ZBEKISTONDA JADAL URBANIZATSIYA SHAROITIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI SHAHARSOZLIKKA INTEGRATSIYA QILISH.....	557
Azamiddin Quldashev	
MANAGEMENT OF CULTURAL HERITAGE IN TOURIST DESTINATIONS OF UZBEKISTAN: THE CASE OF THE NEWLY RESTORED IMAM AL-BUKHARI COMPLEX	562
Saidzoda Shakhlokhon Murodiloevna	
O'ZBEKISTONDA PENSIYA TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA MINTAQAVIY TAHLILI	568
Jumabayeva Kumush Botir qizi	
CIVIL-MILITARY COOPERATION AND SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN NIGERIA: A STATISTICAL ASSESSMENT OF EDUCATIONAL AND LEGAL POLICY OUTCOMES.....	578
Adams Adah Otakwu Muhammad Auwal Sule Blessing Onyanta Otakwu Mercy Omoo Otakwu	
SOCIAL CONDITIONS AND ORGANISED CRIMINALITY IN NIGERIA: IMPLICATIONS FOR LAW ENFORCEMENT AND SOCIAL POLICY	591
Adams Adah Otakwu Muhammad Auwal Sule	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARINING EKOLOGIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODIK ASOSLARI.....	601
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
KICHIK BIZNESDA BANDLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI TIZIMLASHTIRISH VA BAHOLASHNING EKONOMETRIK YONDASHUVLARI.....	607
Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li	
KOMPETENSIYA MATRIKSINING MEHNAT BOZORIDAGI AHAMIYATI VA UNING O'ZBEKISTON UCHUN INSTITUTSIONAL JIHATLARI	616
Kurbanbayeva Sevara Marat qizi	
BYUDJET YO'QOTISHLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA KO'P O'LCHOVLI TASNIFI (RISK-MENEJMENT KONTEKSTIDA)	623
Jasur Nurmatov	
ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕГРИРОВАННОЙ ТУРИСТСКОЙ ЭКОСИСТЕМЫ КАК ОСНОВА КОМПЛЕКСНОГО РАЗВИТИЯ ТУРИСТСКОЙ ИНДУСТРИИ УЗБЕКИСТАНА.....	630
Абзалова Нозимахон Нодирбек кизи	
XORIJIY MAMLAKATLARNI SANOATLASHUV MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	636
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
TIJORAT BANKLARINING KORXONALAR INNOVATSION-INVESTITSIYAVIY TALABLARINI TA'MINLASHDAGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	642
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



HUDUDLARNING IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHIDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	646
Muxamadjanov Shaxriyor Solijon o'g'li	
IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI MARKETING KONTENTINING ISTE'MOLCHILARNING XARID QILISH NIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	652
Tilavkobilova Mehriniso Isomiddin qizi	
YASHIL LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING TASNIFI VA ULARNING BANK TIZIMIDAGI O'RNI	658
Sobirov Bobur Oybek o'g'li	
ЦИФРОВАЯ ТАМОЖНЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА К НАЦИОНАЛЬНЫМ ЦИФРОВЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	663
Сейдеметова Эльмира Оралбай кизи	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURISTIK-IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASH USLUBIYOTI	667
Sharofiddinov Shohabbos Xayrullayevich	
O'ZBEKISTONDA MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (IFRS) O'TISH SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TRANSFORMATSIYA QILISH MUAMMOLARI	675
To'rayeva Farida Rustam qizi	



O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (IFRS) O'TISH SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TRANSFORMATSIYA QILISH MUAMMOLARI



To'rayeva Farida Rustam qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistent-stajyor
E-mail: turaeva.fari@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiya qilish jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. MHXSga o'tishning korxonalar moliyaviy hisobotlarining shaffofligi, ishonchliligi va xalqaro investorlar uchun tushunariligidini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Milliy buxgalteriya hisobi tizimi va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar, malakali mutaxassislar yetishmasligi, axborot tizimlarini moslashtirish, hisob siyosatini qayta ko'rib chiqish hamda transformatsiya xarajatlari bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida MHXSga o'tish jarayonini samarali tashkil etish, buxgalteriya hisobini xalqaro talablarga muvofiq transformatsiya qilish va moliyaviy hisobot sifatini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, MHXS, IFRS, buxgalteriya hisobi, transformatsiya, hisob siyosati, moliyaviy hisobotning shaffofligi, xalqaro standartlar, aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy tahlil, xalqaro investitsiyalar.

Аннотация. Исследованы теоретические и практические аспекты трансформации бухгалтерского учета в условиях перехода Узбекистана на Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО). Раскрыто значение перехода на МСФО для повышения прозрачности, достоверности и понятности финансовой отчетности предприятий для международных инвесторов. Проанализированы различия между национальной системой бухгалтерского учета и международными стандартами, вопросы нехватки квалифицированных специалистов, адаптации информационных систем, пересмотра учетной политики, а также затрат, связанных с процессом трансформации. На основе результатов исследования разработаны практические предложения, направленные на эффективную организацию перехода на МСФО, трансформацию бухгалтерского учета в соответствии с международными требованиями и повышение качества финансовой отчетности.

Ключевые слова: финансовая отчетность, МСФО, IFRS, бухгалтерский учет, трансформация, учетная политика, прозрачность финансовой отчетности, международные стандарты, активы, обязательства, доходы, расходы, финансовый анализ, международные инвестиции.

Abstract. The theoretical and practical aspects of accounting transformation in the context of Uzbekistan's transition to International Financial Reporting Standards (IFRS) are examined. The significance of the transition to IFRS in enhancing the transparency, reliability, and understandability of corporate financial statements for international investors is highlighted. Differences between the national accounting system and international standards, the shortage of qualified specialists, the adaptation of information systems, the revision of accounting policies, and costs associated with the transformation process are analyzed. Based on the research findings, practical recommendations are developed to ensure an effective transition to IFRS, transform accounting practices in accordance with international requirements, and improve the quality of financial reporting.

Keywords: financial reporting, IFRS, accounting, transformation, accounting policy, financial reporting transparency, international standards, assets, liabilities, income, expenses, financial analysis, international investment.



KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga faol integratsiyalashuvi korxonalarning moliyaviy axborotlarini xalqaro talablar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari korxonalar faoliyati to'g'risidagi moliyaviy ma'lumotlarni yagona tamoyillar asosida shakllantirish, ularning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son¹ qarori MHXSga o'tish jarayonining muhim huquqiy asoslaridan biri bo'ldi [1]. Mazkur qaror asosida qator tashkilotlar uchun MHXS asosida hisob yuritish va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bo'yicha vazifalar belgilangan. MHXSga o'tish nafaqat buxgalteriya hisobining ayrim qoidalarini o'zgartirish, balki korxonaning butun hisob tizimini transformatsiya qilishni talab etadi. Bunda hisob siyosatini qayta ko'rib chiqish, aktiv va majburiyatlarni baholash, daromad va xarajatlarni tan olish, moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro talablar asosida tayyorlash hamda buxgalterlarning malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282-son² qaror bilan MHXSga o'tishning yangi bosqichi belgilangan bo'lib, moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi [2]. 2026-yilda ushbu yo'nalishda metodologik kengash tashkil etilgani ham islohotlarning izchil davom etayotganini ko'rsatadi. Shu sababli O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayonida yuzaga kelayotgan masalalarni aniqlash, ularning korxonalar buxgalteriya tizimiga ta'sirini baholash va transformatsiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda, asosan, MHXSni joriy etishning moliyaviy hisobot shaffofligi, investitsion jozibadorlik, buxgalterlarning malakasi, axborot tizimlarini moslashtirish va milliy hisob tizimi bilan xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar kabi jihatlariga e'tibor qaratilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan S. Leuz va H. Lauks moliyaviy hisobotda adolatli qiymat asosida baholash masalalarini o'rgangan [3]. Ularning tadqiqotlarida aktiv va majburiyatlarni baholashda bozor qiymatidan foydalanish moliyaviy hisobot axborotining foydalanuvchilar uchun ahamiyatini oshirishi bilan birga, baholash jarayonida professional mulohazaga bo'lgan talabni ham kuchaytirishi ko'rsatiladi. Bu jihat O'zbekistonda MHXSga o'tishda buxgalterlarning yangi hisob tamoyillarini o'zlashtirishi zarurligini ko'rsatadi. S. S. Barz tadqiqotlarida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining moliyaviy hisobot sifati va axborotning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi foydaliligiga ta'siri o'rganilgan. Uning ilmiy yondashuvlari MHXS asosida tayyorlangan hisobotlarning taqqoslanuvchanligi va axborot sifatini oshirish masalasini asoslashda muhim ahamiyatga ega [4]. Mahalliy tadqiqotchilardan B. K. Hamdamov va K. Sh. Ibragimov O'zbekistonda buxgalteriya hisobini MHXS asosida takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan. Ularning ishlarida milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, mavjud masalalar va ularning yechimlari hamda MHXSga o'tishning ahamiyati yoritilgan [5]. Shuningdek, A. I. Artemenkov va O. Ganiev O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayonida asosiy vositalarning qadrsizlanishini aniqlash va qayta tiklash masalalarini tadqiq qilgan [6]. Tadqiqotda IAS 36 va IFRS 1 talablarini O'zbekiston sharoitida qo'llash, shuningdek, hisob-kitoblarni avtomatlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Mualliflar ishlab chiqqan yondashuv O'zbekistonda keng qo'llaniladigan 1C dasturiy ta'minoti bilan integratsiyalash imkoniyatini ham nazarda tutadi. Yaqindagi mahalliy tadqiqotlarda esa O'zbekistonda MHXSga o'tishning asosiy masalalari sifatida milliy standartlar bilan MHXS o'rtasidagi tafovutlarni muvofiqlashtirish, malakali mutaxassislar salohiyatini oshirish, transformatsiya xarajatlarini samarali boshqarish, axborot tizimlarini takomillashtirish va me'yoriy bazani moslashtirish zarurati ko'rsatilmoqda. Demak, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, MHXSga o'tish moliyaviy hisobot shakllarini o'zgartirish bilan bir qatorda korxonaning hisob siyosati, axborot tizimi, xodimlar malakasi, ichki nazorat va boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini kompleks transformatsiya qilishni talab etadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4746047>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282-son qaror: <https://lex.uz/uz/docs/-7728924>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda MHXSga o'tish sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiya qilish masalalarini aniqlash uchun qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul orqali O'zbekistonda amalda qo'llanilgan milliy buxgalteriya hisobi tamoyillari va MHXS talablari o'rtasidagi asosiy farqlar taqqoslandi. Tadqiqot davomida aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy instrumentlar va moliyaviy hisobotlarni shakllantirishga qo'yiladigan talablar qiyosiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, MHXSga o'tish jarayonida yuzaga kelayotgan malakaviy, texnologik, tashkiliy va moliyaviy masalalar tahlil qilindi. Qiyoslash natijalari asosida O'zbekiston korxonalarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga samarali moslashtirish bo'yicha xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayoni mamlakat buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son³ qarori bilan aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchi maqomiga ega yuridik shaxslar uchun MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlashga o'tish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. IFRS Foundation ma'lumotlariga ko'ra, mazkur tashkilotlar uchun MHXS asosida hisobot tayyorlash talabi 2021-yil 1-yanvardan belgilangan. Tadqiqotda qo'llanilgan qiyosiy tahlil usuli milliy hisob tizimi va MHXS o'rtasida bir qator muhim farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Milliy hisob tizimida ayrim hisob obyektlarini baholash va tan olish jarayonlari ko'proq belgilangan qoidalarga tayanadigan bo'lsa, MHXSda iqtisodiy mazmun, professional mulohaza va aktiv yoki majburiyatning haqiqiy iqtisodiy mohiyatiga katta ahamiyat beriladi. Natijada buxgalterdan nafaqat standartlarni bilish, balki muayyan xo'jalik operatsiyasining iqtisodiy mazmunini chuqur tahlil qilish qobiliyati ham talab etiladi.

Birinch muhim masala – milliy buxgalteriya hisobi va MHXS o'rtasidagi tafovutlarni muvofiqlashtirishdir. Korxona milliy standartlar asosida yuritilgan hisob ma'lumotlarini MHXS talablariga moslashtirishi uchun mavjud hisob registrlari, schyotlar rejasi, hisob siyosati va hisobot shakllarini qayta ko'rib chiqishi zarur. Bu jarayon texnik o'zgartirishlar bilan bir qatorda buxgalteriya tizimini kompleks ravishda qayta tashkil etishni talab qiladi.

Ikkinchi muhim masala – xodimlarning malakasini oshirishdir. MHXS tamoyillarining o'ziga xosligi sababli buxgalterlar xalqaro standartlarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy holatlar orqali ham o'zlashtirishi kerak. So'nggi tadqiqotlarda ham professional kadrlar salohiyatini yanada oshirish MHXSni samarali joriy etishning muhim omillaridan biri sifatida qayd etilmoqda.

Uchinchi muhim masala – axborot texnologiyalarini transformatsiya qilishdir. Zamonaviy MHXS hisobotlarini tayyorlashda buxgalteriya dasturlarining funksional imkoniyatlarini xalqaro standartlar talablariga muvofiq rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonaning hisob tizimi aktivlarni qayta baholash, qadrsizlanishni hisoblash, moliyaviy instrumentlarni tasniflash, kechiktirilgan soliqlarni aniqlash va boshqa murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu masalada O'zbekistonda o'tkazilgan tadqiqotlar ham amaliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Masalan, Artemenkov va Ganiev tadqiqotida asosiy vositalarning qadrsizlanishini MHXS talablariga muvofiq hisoblash va uni 1C dasturiy ta'minoti bilan avtomatlashtirish masalasi ko'rib chiqilgan.

To'rtinchi muhim masala – transformatsiya xarajatlarini samarali boshqarishdir. MHXSga o'tish korxonalardan yangi dasturiy ta'minot, xodimlarni qayta tayyorlash, tashqi konsultantlarni jalb qilish va hisobot tizimini qayta tashkil etish uchun qo'shimcha mablag' talab qilishi mumkin. Ayniqsa, moliyaviy imkoniyatlari nisbatan cheklangan korxonalar uchun mazkur xarajatlarni samarali rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. 2025-yildagi mahalliy tadqiqotlarda ham transformatsiya xarajatlarini maqbullashtirish MHXSga o'tish jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatilgan.

Beshinchi muhim masala – soliq hisobi va moliyaviy hisob o'rtasidagi farqlarni muvofiqlashtirishdir. MHXSning asosiy maqsadi investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun sifatli moliyaviy axborot taqdim etishdan iborat. Soliq hisobi esa davlat oldidagi soliq majburiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Shu sababli moliyaviy natija va soliqqa tortiladigan foyda o'rtasida farqlar paydo bo'lishi mumkin. Bu esa korxonalardan parallel hisob-kitoblarni to'g'ri tashkil etishni talab qiladi.

O'zbekiston uchun ushbu masalalarni hal etish jarayoni yangi bosqichga kirgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4746047>



takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282-son⁴ qaror bilan moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish hamda MHXSga o'tishning yangi bosqichi belgilangan. 2026-yilda ushbu qaror ijrosi doirasida buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha Metodologik kengash ham tashkil etilgan. Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2026–2027-yillarda milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro talablarga uyg'unlashtirish maqsadida 8 ta yo'nalish bo'yicha 30 dan ortiq Moliyaviy hisobotning milliy standartlarini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayonini yanada samarali tashkil etish bo'yicha ikki asosiy taklifni ilgari surish mumkin. **Korxonalarda bosqichma-bosqich MHXS transformatsiya modelini joriy etish.** Korxonalarning MHXSga o'tishini barcha hisob jarayonlarini bir vaqtning o'zida o'zgartirish orqali emas, balki bosqichma-bosqich transformatsiya modeli asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda korxonaning amaldagi buxgalteriya hisobi tizimi to'liq diagnostika qilinishi kerak. Milliy standartlar asosida yuritilayotgan hisob ma'lumotlari MHXS talablari bilan solishtirilib, asosiy tafovutlar aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda korxonaning hisob siyosati qayta ishlab chiqilishi va MHXS talablariga moslashtirilishi lozim. Bunda aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar va kapital elementlarini tan olish hamda baholash mezonlari qayta ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, zaxiralar, moliyaviy instrumentlar va debitorlik qarzlari hisobga olishga alohida e'tibor berish zarur. Uchinchi bosqichda transformatsiya jadvali ishlab chiqilishi taklif etiladi. Unda milliy hisob ma'lumotlari, MHXS bo'yicha tuzatishlar va yakuniy xalqaro hisobot ko'rsatkichlari o'zaro bog'lanadi. Bu auditor va boshqaruv xodimlariga har bir o'zgarishning sababini kuzatish imkonini beradi. To'rtinchi bosqichda parallel hisob yuritish yoki avtomatlashtirilgan transformatsiya mexanizmini joriy etish mumkin. Bunda milliy va xalqaro hisobotlar o'rtasidagi tafovutlarni muntazam nazorat qilish osonlashadi. Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, korxona MHXSga o'tish jarayonida yuzaga keladigan xatolarni bosqichma-bosqich aniqlab, ularni o'z vaqtida bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada transformatsiya jarayonining moliyaviy va tashkiliy yuklamasini samarali boshqarish imkoniyati yaratiladi.

MHXS bo'yicha yagona raqamli ta'lim va amaliy kompetensiya tizimini rivojlantirish. MHXSga o'tishning muvaffaqiyati bevosita buxgalter va auditorlarning malakasiga bog'liq. Shu sababli MHXS bo'yicha doimiy professional ta'lim tizimini kuchaytirish zarur. Bunda nazariy bilimlar bilan bir qatorda real korxona ma'lumotlari asosida amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi kerak. Ta'lim dasturlarida IFRS 1, IFRS 9, IFRS 15, IFRS 16, IAS 16, IAS 36 va boshqa muhim standartlarni amaliy misollar asosida o'rgatish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, MHXSning professional mulohaza talab qiladigan qismlariga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Shuningdek, universitetlar, malaka oshirish markazlari va professional tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish taklif etiladi. Bunda buxgalterlar uchun qisqa muddatli qayta tayyorlash kurslari, onlayn platformalar va amaliy sertifikatlash dasturlarini rivojlantirish mumkin. Raqamli ta'lim platformasida standartlarning o'zbek tilidagi tushuntirishlari, amaliy topshiriqlar, transformatsiya misollari va testlar joylashtirilishi foydali bo'ladi. Bu, ayniqsa, hududlarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining MHXS bo'yicha bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, korxonalarda "MHXS bo'yicha mas'ul mutaxassis" yoki kichik transformatsiya guruhini shakllantirish taklif etiladi. Ushbu guruh korxonaning xalqaro standartlarga o'tish rejasini ishlab chiqadi, transformatsiya tuzatishlarini nazorat qiladi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida boshqa bo'limlar bilan hamkorlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish mamlakat buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro iqtisodiy makonga integratsiyalashuvning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida MHXSga o'tish jarayoni moliyaviy hisobot shakllarini o'zgartirish bilan bir qatorda korxonaning butun buxgalteriya hisobi, hisob siyosati, axborot texnologiyalari, ichki nazorat va xodimlar malakasini kompleks ravishda transformatsiya qilishni talab etishi aniqlandi. Tadqiqotda qo'llanilgan qiyosiy tahlil usuli orqali milliy buxgalteriya hisobi va MHXS o'rtasidagi asosiy farqlar o'rganildi. Tahlil natijasida xalqaro standartlarda iqtisodiy operatsiyalarning mazmuniga, aktiv va majburiyatlarning haqiqiy qiymatini aks ettirishga hamda moliyaviy axborotning foydalanuvchilar uchun foydaliligiga katta e'tibor berilishi aniqlandi. Shu jihatdan MHXSga o'tish korxonalarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun yanada tushunarli va taqqoslanuvchan qilish imkonini beradi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar ham O'zbekistonda MHXSga o'tishda malaka va texnologik salohiyatni rivojlantirish, institutsional muhitni takomillashtirish hamda milliy standartlar bilan xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlarni muvofiqlashtirish muhim yo'nalishlar ekanini ko'rsatmoqda. Shu sababli davlat tomonidan yaratilayotgan normativ bazani korxonalar darajasidagi amaliy mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish, ta'lim tizimi va professional

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282-son qaror: <https://lex.uz/uz/docs/-7728924>



sertifikatlash amaliyotini esa real biznes ehtiyojlariga moslashtirish maqsadga muvofiq. MHXSga muvaffaqiyatli o'tish O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridagi ishtirokini kengaytirish, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash, korxonalar moliyaviy holatini obyektiv baholash va mamlakatda zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4746047>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7728924>
3. Leuz, C., Wüstemann, J. The Role of Accounting in the German Financial System // Accounting and Finance. – 2003. – Vol. 43. – P. 1–25.
4. Barz, M. E., Landsman, W. R., Lang, M. H. International Accounting Standards and Accounting Quality // Journal of Accounting Research. – 2008. – Vol. 46, № 3. – P. 467–498.
5. Hamdamov, B. K., Ibragimov, K. Sh. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqlashtirish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2023.
6. Artemenkov, A. I., Ganiev, O. O'zbekiston Respublikasida MHXSga o'tish sharoitida asosiy vositalarning qadrsizlanishini aniqlash va tiklash: Excel algoritmi asosida tahliliy yondashuv. – 2024. – 16 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>